



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

10/2023

E-ISSN 2181-1466





9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



10/2023

<b>Umurova Kh.Kh.</b>	Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures	127
<b>Назарова Г.А., Сайдуллаева М.С.</b>	Калькалаш – сўз ўзлаштиришнинг самарали усули сифатида	131
<b>Achilova R.A.</b>	Baholovchi va tavsiflovchi allyuziyalar talqini	137
<b>Jumayev E.B.</b>	O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va gap	141
<b>Mansurova N.A.</b>	Ingliz va o'zbek tillarida marketing va menejmentga oid terminlarda terminologik sinonimiya	146
<b>Tashlanova N.Dj.</b>	Tarixiy dialektual-lug'at va leksikologik tadqiqotlarda analitik bazaning ahamiyati (Ingliz tili misolida)	151
<b>Yunusova M.Sh.</b>	Polysemy in contrast to homonymy	156
<b>Adambaeva F.R.</b>	Ingliz tilida biotexnologiyaga oid ko'p komponentli atamalarning morfologik xususiyatlari	160
<b>Niyazova Sh.T.</b>	Lexical significance of «face» across linguistic landscapes: a comparative study in uzbek, russian, and english	165
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Ражабов Д.З.</b>	Ўзбек халқ шеър тузилишида вазн, ритм, қофия уйғунлиги	171
<b>Adizova O.I.</b>	Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi	176
<b>Tўраева Б.Б.</b>	Чингиз Айтматов романларида хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологиялик тадқиқи	180
<b>Eshniyazova M.B.</b>	The poetics of genres in the mystical works of Alisher Navoi	185
<b>Mahmudova D.M.</b>	Corpora and literature	190
<b>Umarov U.A.</b>	Jahon adabiyotida arxetip tushunchasining paydo bo'lishi va o'rganilish masalasi	195
<b>Шербекова Г.Я.</b>	Бухоро никоҳ тўйи қўшиқларида совчилик удумининг ифодаланиши	200
<b>Kilicheva M.R.</b>	Postmodern narratology in “Time’s arrow” by Martin Amis	205
<b>Kuchkarov T.O.</b>	“To‘maris” rivoyati syujeti va uning o‘zbek folkloridagi epik talqinlari	209
<b>Musurmonov T.T.</b>	Somerset Moem ijodi va ingliz nasrida noan'anaviy tasvir hamda adabiy arxitiplar	215
<b>Ҳаҳуаева Н.И.</b>	Asar badiiy olamini yaratishda badiiy makon kategoriyasining adabiy-estetik vazifasi	219
<b>Темирова Дж.Х.</b>	Сюжетная составляющая игр с противостоянием в русском и узбекском детском игровом фольклоре	223
<b>Эргашева Д.А.</b>	XX аср боши миллий ҳаракатларнинг адабий жараёнларга таъсири	227

## ASAR BADIY OLAMINI YARATISHDA BADIY MAKON KATEGORIYASINING ADABIY-ESTETIK VAZIFASI

*Yaxyayeva Nigina Ibragim qizi,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
n.i.yaxyayeva@buxdu.uz*

**Annotatsiya.** Makon kategoriyasiga murojaat qilish, ya'ni uni tahlil qilish ta'lim muassasalarida badiiy asarni o'rganishga yangicha yondashuv bo'ladi. Ushbu maqola matni badiiy xususiyatlari va asar tuzilishidagi tartibga solish imkoniyatlari orqali tahlil qilishda makonga murojaat qilishning mumkin bo'lgan usullaridan birini taqdim etadi. Badiiy makon tasviri voqealarning mohiyatini va ularning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlaydi. Yozuvchining obyektiv va subyektiv yondashuvi asosida yaratiladi. Obyektivlik asosida asarda ifoda etilgan makon tasviri tabiiy geografik hudud, joyni bildirsa, subyektivlik badiiy makonni qahramon ruhiy olamida ro'y bergan holatlar bilan uyg'unlashtiradi. Zamonaviy qissalarda asosan bu ikki jihat uzviylashgan holda asarning tasvir ko'lamini kengaytirgan.

**Kalit so'zlar:** abstrakt makon, konkret makon, gorizontal va vertikal makon, ochiq va yopiq makon, tashqi va ichki makon, dinamik va statik (turg'un) makon.

## ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ РОЛЬ КАТЕГОРИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОСТРАНСТВА В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МИРА ПРОИЗВЕДЕНИЯ

**Аннотация.** Обращение к категории пространства, то есть его анализ, станет новым подходом к изучению художественного произведения в образовательных учреждениях. В данной статье представлен один из возможных способов обращения к пространству при анализе текста через его художественные особенности и возможности расположения в структуре произведения. Образ художественного пространства передает суть событий и их логическую последовательность. Оно создано на основе объективного и субъективного подхода писателя. По принципу объективности образ пространства, выраженный в произведении, представляет собой природную географическую область, место, а субъективность соединяет художественное пространство с ситуациями, произошедшими в психическом мире героя. В современных произведениях преимущественно эти два аспекта сочетаются и расширяют рамки произведения.

**Ключевые слова:** абстрактное пространство, конкретное пространство, горизонтальное и вертикальное пространство, открытое и закрытое пространство, внешнее и внутреннее пространство, динамическое и статическое пространство.

## LITERARY-AESTHETIC ROLE OF THE CATEGORY OF LITERARY SPACE IN THE CREATION OF THE ARTISTIC WORLD OF A FICTION WORK

**Abstract.** Addressing the category of literary space, that is, analyzing it will be a new approach to study an artistic work in educational institutions. This article presents one of the possible ways of addressing the literary space in the analysis of the text through its artistic features and arrangement possibilities in the structure of the work. The image of the artistic space provides the essence of the events and their logical sequence. It is created because of objective and subjective approach of the writer. Based on objectivity, the image of the space expressed in the work represents a natural geographical area, a place, while subjectivity combines the artistic space with the situations that occurred in the character's mental world. In modern short novels, mainly these two aspects will be combined and expand the image scope of the work.

**Key words:** abstract space, concrete space, horizontal and vertical space, open and closed space, external and internal space, dynamic and static space.

**Kirish.** Arabcha "kavm" o'zagidan olingan "makon" so'zi, joy, uy, turar joy ma'nolarini bildiradi. Bundan tashqari, u hozirgi muhit, atrof-muhit, tevarak dunyo va koinotning ma'nolarini ham o'z ichiga oladi. Makon ingliz tilidagi "bo'shliq" (space) so'zining o'zbekcha muqobilidir. Makon tushunchasi tabiiy, gumanitar va ijtimoiy fanlarning predmeti hisoblanadi. Badiiy adabiyotda eas bu tushuncha makon kategoriyasi sifatida o'rganiladi.

Badiiy adabiyotga makon tushunchasi Yuriy Lotman va Mixail Baxtin orqali kirib kelgani va Moris Blanshoning ham bu sohadagi hissalarini hech kimga sir emas. Makonning badiiy adabiyotga kirib kelishi

1970-yillarda hikoya mavzulari, hikoyadagi joy tavsiflari haqidagi muhokamalardan keyin boshlandi deyish mumkin. Ammo aslida, makon kategoriyasining konseptual kelib chiqishi qadimgi yunon falasafasiga borib taqaladi. Aristotelning fikricha, makonda o'rin almashinuv harakat o'zgarishining asosiy turi bo'lib, qolgan barcha turlarning sharti hisoblanadi. Makonda o'rin almashinuv to'g'ri chiziqli va aylanma, uzlukli va uzluksiz, teng va tengsiz harakat bo'lishi mumkin [5; 250-b].

**Asosiy qism.** Badiiy asar olami hamisha u yoki bu darajada, unda tasvirlangan makon kabi shartlidir. Makonning shartliliigi asarda muallifning g'oyalari, niyati va badiiy uslubiga muvofiq aks ettirilgan bo'ladi. Haqiqiy makonning aksi bo'lgan holda badiiy makon, metaforaning asosiy qismi sifatida, uning jismoniy tabiati haqidagi g'oyani saqlab qoladi. Badiiy makon adabiy-estetik kategoriya sifatida asar voqealari sodir bo'lgan joyni anglatadi. Qahramonlar shu makonda harakatlanadilar, ya'ni tug'iladilar, yashaydilar va vafot etadilar. Yozuvchining ijodiy niyatiga ko'ra asar uchun makon va zamon tanlanadi, sababi adabiy asar real hayotning muayyan qisminigina badiiy ifoda etadi. "Inson tafakkurida olam mavjudligi turfa ranglarda ifodalanadi. Ko'plab predmetlar, obyektlar inson idrokida dunyoning murakkab makon tasvirini yaratadi". [1].

Boshqa san'at turlariga solishtirganda, adabiyot makon kategoriyasiga erkin murojaat qila oladi. Asarda makonning aniq tasviri, ya'ni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlash imkoni bo'lmaganligi bois, unda makon bir joydan boshqa joyga bemalol ko'cha olish xususiyatiga ega bo'ladi. [2; 680-b].

Adabiyotshunoslikda makon kategoriyasini olimlar binar qarama-qarshilikda ifodalanishini ta'kidlab, bir necha turlarga ajratishgan: mavhum va konkret, ichki-tashqi, ochiq-yopiq, keng-tor, yuqori-past, gorizont-al-vertikal, uzoq-yaqin, baland-past, chuqur-sayoz va boshqalar. Makon kategoriyasi uchun mavhumlik va aniqlik (konkretlik) xususiyati eng muhimlaridan hisoblanadi. **Konkret** makon tashqi olam tasvirini yaratishda namoyon bo'ladi. Bu nafaqat asardagi voqea-hodisalarni ma'lum bir joyga bog'laydigan, balki tasvirlangan voqeaning mohiyatiga faol ta'sir qiladigan geografik makon bo'lishi va asarda badiiy obrazga aylanishi mumkin. Asarda badiiy makonning o'ziga xosligi yozuvchi tomonidan turli darajadagi aniqlik bilan amalga oshiriladi. Muallif harakat sahnasini, vaziyatni aniq nomlashi va tasvirlashi, ya'ni makon tasvirini aniq yaratishi, ba'zi hollarda esa detallar yoki belgilar yordamida o'quvchi asarda tasvirlangan makonni o'z tasavvurida hosil qilishi mumkin. Bunday holatda makon nomi, joylashuvi umuman nomlanmasligi mumkin, shunga qaramay yozuvchi shubhasiz, haqiqiy o'xshashlikka ega bo'lgan makon tasvirini yaratishga muvaffaq bo'ladi. **Mavhum** makon jahon adabiyotshunosligida odatda "global umumlashtirish" makoni sifatida qabul qilinadi va u mavjud universallik ("hamma joyda" va "hech qayerda") va reallik bilan tavsiflanadi. Badiiy makonning bu xususiyati ramziy umumlashmani o'z ichiga oladi. U umuminsoniy mazmuni ifodalaydi va ayni paytda milliy-tarixiy o'ziga xoslikni ham o'z ichiga oladi. Badiiy obraz sifatida mavhum makon real voqelikdan tafsilotlarni olib, nafaqat peyzaj, moddiy olam, balki inosniy xarakterlarning milliy-tarixiy o'ziga xosligini ifodalaydi.

Makonning yo'nalishga qarab joylashuvi haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, uning vertikal va gorizont-al turlarini tavsiflab o'tish joizdir. Badiiy makonning ushbu xususiyatlari ko'p hollarda tabiat tasviri ifodalanganda namoyon bo'ladi. **Gorizont-al makon** asarda ko'p hollarda ochiq makonda, keng tabiat orqali tasvirlanadi. Bular okean, dengiz, cho'l, dala va boshqalardir. Gorizont-al makon dunyoning to'rt tomoni (shimoliy, janubiy, g'arbiy, sharqiy) yoki tomonlar ifodasi (o'ng, chap, oldin, orqa)ni o'z ichiga oladi. Ushbu makon tasvirlari ham asar koordinata tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, qahramonlarning hayotini idrok qilishga yordam beradi. **Vertikal makon** tasviriga esa, barcha yuqoriga ishora qiluvchi toponimlar, masalan tog'lar misol bo'la oladi. Vertikal makon badiiy asarda uch olamga bo'lib o'rganiladi (yuqori, o'rta va pastki). Birinchisi, yuqori, ya'ni koinot olami (masalan, osmon, quyosh, jannat), ikkinchisi o'rta, ya'ni haqiqiy olam (yer, tog'lar, daryolar, shahar, qishloq va hokazo) va uchinchisi pastki, ya'ni o'limdan keyingi olam (yer qa'ri, yer osti olami, do'zax). Asar ichki qurilmasida vertikal makonning o'rni o'ziga xos bo'lib, keng qamrovli obrazlarni o'z ichiga oladi. Vertikal makon hayot mantig'i, tiriklikning mohiyati, uning asl mazmunini anglash va abadiylikka erishish maqsadida personajlarning olam bilan qayta birlashuvini aks ettiradi. Personaj ma'naviy olamidagi vertikallik ikki holatda – yuksaklik va tubanlik darajasida namoyon bo'ladi. Bu holat bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o'rtasida konfliktni yuzaga keltiradi va voqealar drammatizmini kuchaytiradi.

**Ochiq va yopiq makon** tasviri haqida adabiyotshunos Yu.Lotman shunday degan: Yopiq makon – bu qahramon uchun xavfsiz, o'ziga tanish bo'lgan makon (uy, xona); ochiq makon esa unga begona, xavf tug'diradigan, ya'ni kutilmagan noxushliklar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan joydir (dasht-u dalalar, yo'llar). Yopiq makon chegaralangan bo'ladi va qahramon tashqi olam bilan munosbatlarga kirishishda muayyan cheklovlarga duch keladi. Ochiq makonda esa, aksincha, cheksiz harakat qilish imkoni mavjud. Ammo Dostoyevskiyning romanlarida uyning deraza va eshiklari yopiq makondan ochiq makonga chiqish yo'llari sifatida tasvirlangan.


Badiiy makonning yana bir xususiyati alohida ta'kidlab o'tish joiz – diskretlik, ya'ni uzluksizlik. Bu xususiyat yozuvchiga harakatni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish imkonini beradi; qahramon bir makondan boshqa makonga erkin o'ta oladi. Makonning diskretligi shundaki, u odatda batafsil tasvirlanmaydi, faqatgina yozuchi uchun muhim bo'lgan individual tafsilotlar yordamida ko'rsatiladi. Bundan tashqari asarlarda hayotiy, fantastik (xayoliy), virtual va psixologik makonlar mavjud. Hayotiy, ya'ni real makon atrofidagi obyektlar, jismlar reallikka xos, o'xshash bo'ladi. Bu shunday makonki, u ham yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan, gorizontal ochiq va cheklangan, yaqin va uzoq bo'lishi mumkin. **Fantastik** makon asar xronotopini yaratishda muhim o'rin tutadigan unsurlardan hisoblanadi. U insoniyat uchun g'ayritabiiy bo'lib, ham gorizontal, ham vertikal bo'lishi mumkin. Harakatning subyektlari fantastik, xayoliy personajlar, yoki mavhum mavjudotlar hisoblanadi va ular makonlararo erkin harakatlanadi. Badiiy asardagi **psixologik makon** bu – qahramonning ichki olami, hissiyotlari va kayfiyati bilan bog'liq tushunchadir. **Virtual makon** deganda esa, qahramonlar to'siqsiz kirib borishi va real hayotiy haqiqatlarni his qilishi mumkin bo'lgan sun'iy yaratilgan makon tushuniladi.

Zamonaviy romanlar kabi zamonaviy qissalar badiiy makonida ham olam tasviri murakkab va serqirra aks etadi. Badiiy asarda makon tasviri yozuvchi niyati asosida ikki xil ifodani anglatadi: birinchidan, insonning tashqi olam bilan munosabatlarini, ikkinchidan, insonning qalbida yuz bergan tuyg'ularni gavdalantiradi. Bu ifodalar ilmiy manbalarda makro va mikromakon terminlari bilan yuritiladi. Ya'ni, dunyo, olam tasviri – makromakon, personaj ruhiy olami – mikromakon. Makro va mikromakon asarda ikkita hikoya o'zanini yaratishga xizmat qiladi. Makromakon qahramonning idroki orqali beriladi, ya'ni mikromakon orqali teranlashadi. Chingiz Aytmatov qahramonlari asosan ochiq va tashqi makonda, ya'ni tog'-u toshlarda, dengizda, hatto koinotda harakatlanadi. Ernest Hemingueyning qissalarida ham tog'-u toshlar va dengiz ochiq tashqi makon sifatida tanlangan. Har ikkala yozuvchi qissalari – “Chol va dengiz” (Ernest Heminguey) va “Sohil yoqlab chopayotgan Olapar” (Chingiz Aytmatov) da makromakon, ya'ni dengiz, qahramon qalbining naqadar kengligi, ichki dunyosi esa sarhadsizligini o'quvchilarga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qissalar qahramonlarining qalbi, his-tuyg'usi, ichki kechinmalari tasvirida tashqi va ichki makon mutanosibliyi kuzatiladi. Har ikkala adibning asaridagi gorizontal makon – dengiz timsoli bir necha estetik vazifalarni bajargan: “*tasviriy* (vizual tasvirni aks ettirish), *hissiy va psixologik* (muallif yoki qahramonning muayyan kayfiyati va his-tuyg'ularini yetkazish), ramziy (ijodkorlarning individual yondashuvi)”. Dengiz timsoli asarning badiiy olamini yaratishda, qahramonning ichki holati va muallif pozitsiyasini ochishda yordam beradi. Shubhasiz, dengiz timsoli asarning muhim detalidir. Xulosa qiladigan bo'lsak, badiiy matnni tahlil qilish asnosida gorizontal makonda insoniyat, tabiat, jamodot olami munosabatlari, vertikal makon orqali esa insonning Ilohga, Yaratganga topinishi tushuniladi.

Badiiy makon deganda faqat asar voqealari ro'y beradigan joy ma'nosi tushunilmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda yozuvchilarning olamni o'ziga xos uslubda tasvirlashlari, hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish usullari, tasvirlanayotgan voqealarga, asar personajlariga munosabatlari ichki xronotop sifatida talqin qilinmoqda. Tashqi xronotop asarda borliqning kichraytirilgan modelini anglatrsa, ichki xronotop ko'ngil atalmish nodir xilqatning noyobligi va qalb sarhadlarining cheksizligini ifodalaydi. Ingliz tadqiqotchisi Michael Holquist fikricha, makon kategoriyasi aslida falsafiy bilimlarni asoslashga xizmat qiladi: dunyoni tushunishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida inson mavjudligining boshqa tomonlarini, birinchi navbatda, o'zilikni anglash mezonlarini anglatadi [3; 227-b]. Adabiyotshunos S.Meliev masalaga yanada oydinlik kiritib, yozuvchi qalbidan personaj va kitobxon shuuriga shaffof buloq suvi yanglig' oqib o'tgan tuyg'uga shunday ta'rif beradi: «Tuyg'u, ma'lumki, jism va jonda, ko'ngilda kechmish ruhiy-jismoniy kechinmalar, ruhiy his-tuyg'ular majmuidir»[4;168-b]. Tashqi va ichki xronotop mushtarakligi asar strukturasiidagi ichki yaxlitlikni ta'minlab, obrazlarning individual va umumlashma xususiyatlarini, ularning ichki dunyosini yanada chuqurroq his qilish, tushunishga ko'maklashadi. Ijodkor kitobxon qalbining nozik torlarini chertish orqali uni mahliyo etuvchi ohang yaratadi[8; 36-b].

**Xulosa.** Badiiy makon voqelikni yaxlit idrok etishni ta'minlovchi va asar kompozitsiyasini uyushtiruvchi, badiiy obrazning badiiy-g'oyaviy va falsafiy xususiyatlarini ochuvchi, badiiy asar ichki hamda tashqi tuzilishini tashkil etuvchi har bir unurning aloqaga kirishini ta'minlovchi adabiy-estetik kategoriya hisoblanadi. Asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'iy nazar muallif olamning zamon-makon modelini yaratadi. Badiiy makon asar zamiridagi ma'no-mazmun teranliklarining kashf etilishiga; tuyg'u, voqea-hodisa va obrazlarni mahorat bilan tasvirlanishida xizmat qiladi. Xronotop ham badiiy asar strukturasiining boshqa unsurlari singari muallifning olam tasvirini qayta ifodalash shaklidir. Shu bilan birga, u badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etadi. Xronotop – so'z san'atkorining o'ziga xos ijod olamini tashkil etuvchi ajralmas tarkibiy qism sifatida ijodkor metodi va uslubining o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, milliy va umumbashariy g'oyalar rivojiga xizmat qiladi.

1. *Философия: Энциклопедический словарь*. – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004./[https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc\\_philosophy](https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy)
2. Есин А.Б. *Время и пространство // Введение в литературоведение: Учеб.пособие / Л.В.Чернец, В.Е.Хализев, А.Я.Эспалнек и др.; Под ред. Л.В.Чернец*. – М.: Высшая школа, 2004. – 680с.
3. Michael Holquist. *The Fugue of Chronotope*. – P. 24. (– P. 19-34.) / Nele Bemong, Pieter Borghart, Michel De Dobbeleer, Kristoffel Demoen, Koen De Temmerman & Bart Keunen (eds.). *Bakhtin's theory of the literary chronotope: reflections, applications, perspectives*. UPNE, Lebanon, New Hampshire, USAgent, Academia Press, 2010. – 227 pp.
4. Meliev S. *Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi: Filol.fan.d-ri ...diss*. – Toshkent, 2019. – 168-bet.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 250-bet
6. Sirojova, Z. (2023). *Ingliz, o'zbek va rus tillarida ravishdosh va uning sinkretlashuvi. Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(19)
7. Sirojova, Z. (2022). *Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 25(25).
8. To'rayeva B.B. *Zamonaviy romanlarda xronotop poetikasi monografiyasi*. – Toshkent, 2022. – 36-bet
9. Xafizovna, R. N. . (2023). *The Study of Context: From Static to Dynamic*. *Miasto Przyszłości*, 32, 242–246.
10. Xafizovna, R. N. (2022). *Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies*. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 123-133.
11. Yaxyayeva, N. (2023). *Chingiz Aytmatov asarlarida badiiy makon konsepsiyasi. Interpretation and Researches*, 1(7).
12. Yaxyayeva, N. *Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" va Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" asarlarida portret va peyzaj tasvirining mushtarak elementlari.- Ta'lim fidoyilari*, 2022.
13. Zokirova, Nargiza Savrievna. *"Discursive ontology of (literary) translation. innovative development in the global science, Boston, USA."* (2022).
14. Zokirova N. S. *Extralinguistic Features of Professional Discourse as Metalinguistic Nature of Special Communication //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*. – 2022. – T. 3. – №. 6. – С. 80-84.
15. Chingiz Aytmatov. *Yozuvchi va zamon. Qarang: Adabiyot va zamon*. — Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981 yil, 334- bet.



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted  
30.11.2023 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC  
Address: Bukhara,  
K.Murtazayev street, 344